



FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLISH
VA BARTARAF ETISH SOHASIDA KASBIY
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

**FAVQULODDA VAZIYATLARDA
AEROKUZATUV, RADIATSION
MONITORING VA QUTQARUVNI
TA'MINLASH FAOLIYATI**



“Favqulodda vaziyatlarda aerokuzatuv, radiatsion monitoring va qutqaruvni ta’minlash faoliyati” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug’i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Favqulodda vaziyatlarda aerokuzatuv, radiatsion monitoring va qutqaruvni ta'minlash faoliyati

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0159



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu kasbiy standart "Qutqaruvchi-dozimetrist" va "Qutqaruvchi-uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA) operatori" kasblari uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

favqulodda vaziyat – odamlar qurbon bo'lishiga, ularning sog'lig'i yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyat;

favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish – aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha tadbirlar majmui, vositalar hamda usullar tizimi;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish – favqulodda vaziyatlar ro'y berganda o'tkaziladigan hamda odamlarning hayotini asrab qolish va sog'ligini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorlarini kamaytirishga, shuningdek, favqulodda vaziyatlar zonalarining kengayishiga yo'l hamda xavfli omillar ta'sirini tugatishga qaratilgan qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan ishlar majmui;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish – oldindan o'tkaziladigan hamda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y bergan taqdirda esa, odamlarning hayotini asrab qolishga va sog'lig'ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorlarini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar majmui;

fuqaro muhofazasi – harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan O'zbekiston Respublikasi aholisini,

hududlarini, moddiy va madaniy boyliklarini muhofaza qilish maqsadida o'tkaziladigan tadbirlar davlat tizimi;

FVDTning funksional quyi tizimi – aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha belgilangan funksiyalarni bajaruvchi vazirliklar va idoralar hamda boshqa tashkilotlarni o'z ichiga olgan quyi tizim;

FVDTning hududiy quyi tizimi – tegishli hududda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha belgilangan funksiyalarni bajaruvchi mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarini o'z ichiga olgan quyi tizim;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

qutqaruv ishlari – favqulodda vaziyatlar zonasida odamlarning hayotini asrab qolish va sog'lig'ini saqlash, yuridik hamda jismoniy shaxslarning mol-mulkini, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish va ularga xos bo'lgan xavfli omillar ta'sirini yo'qotish yoki imkon qadar kamaytirishga qaratilgan harakatlar;

qutqaruv tuzilmasi – favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish ishlarini olib borish uchun mo'ljallangan, asosini maxsus texnika, asbob-uskunalar, aslaha-anjomlar va boshqa qutqaruv vositalari bilan ta'minlangan qutqaruvchilar bo'linmalari tashkil etgan mustaqil tuzilma yoki qutqaruv xizmati tarkibiga kiruvchi tuzilma;

qutqaruv vositalari – qutqaruv ishlarini olib borish uchun mo'ljallangan texnik, ilmiy-texnik va intellektual mahsulot, shu jumladan maxsus aloqa va boshqaruv vositalari, texnika, asbob-uskunalar, aslaha-anjomlar, mol-mulk, qutqaruv ishlarini bajarish texnologiyasiga doir uslubiy materiallar, videomateriallar, fotomateriallar, elektron hujjatlar, shuningdek elektron-hisoblash mashinalari uchun dasturiy mahsulotlar va ma'lumotlar bazalari, boshqa vositalar;

qutqaruv xizmati – faoliyati bo'yicha yagona tizimga birlashtirilgan, asosini professional qutqaruv tuzilmalari tashkil etgan, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga doir vazifalarni hal qilish uchun mo'ljallangan boshqaruv organlari, kuchlar va vositalar majmui;

qutqaruvchi – muayyan dastur bo'yicha qutqaruv ishlariga tayyorlangan va belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi;

tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar (keyingi o'rinlarda – favqulodda vaziyatlar) – muayyan hududda odamlar qurbon bo'lishiga, odamlarning sog'lig'iga yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlarga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoitlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy ofat yoxud boshqa ofat natijasida, karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi natijasida yuzaga kelgan vaziyatlar.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 26-dekabrda "Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida"gi 195-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrda "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustda "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarori (IFUT-2.1);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentabrda "Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 754-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-oktabrda "Radiatsiyaviy avariylarni prognoz qilish, barvaqt aniqlash va harakat qilish yagona davlat tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 869-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanishni tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 658-son qaror;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 2023-yil 11-avgustdagi "Favqulodda vaziyat ro'y berish xavfi yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabar berishning avtomatlashtirilgan tizimini rivojlantirish hamda undan samarali foydalanish"ni tashkil etish to'g'risida 361-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29-maydagi "112" yagona dispetcherlik xizmati faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 304-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Bosh sanitariya vrachi tomonidan 2006-yil 5-yanvardagi tasdiqlangan 0193-06-sonli SanQvaM "Radiatsiya xavfsizligi normalari (RXN 2006) va radiatsiya xavfsizligini ta'minlashning asosiy sanitar qoidolari (RXTASQ 2006).

4. Ushbu kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo'llaniladi:

FV – Favqulodda vaziyat;

FVV – Favqulodda vaziyatlar vazirligi;

FM – Fuqaro muhofazasi;

MMR – Milliy malaka ramkasi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

GPS – Global Positioning System (Global joylashuvni aniqlash tizimi)

IMU – Inertial Measurement Unit (Inersial o'lchov qurilmasi)

UUA – Uchuvchisiz uchish apparatlari

QX – Qutqaruv xizmati.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Favqulodda vaziyatlarda aerokuzatuv, radiatsion monitoring va qutqaruvni ta'minlash faoliyati	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Favqulodda vaziyatlarda qutqaruv va radiatsion nazorat ishlarini samarali tashkil etish, inson hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, shuningdek, uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA) yordamida hududlarni kuzatish va zarur ma'lumotlarni tezkor olishni ta'minlash	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	P seksiyasi Davlat boshqaruvi va mudofaa; Majburiy ijtimoiy ta'minot 84 Davlat boshqaruvi va mudofaa; Majburiy ijtimoiy ta'minot 84.2 Davlat tomonidan umuman jamiyatga xizmatlar ko'rsatish 84.25 Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyat 84.25.0 Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyat	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Mazkur kasbiy standart favqulodda vaziyatlarda aerokuzatuvni amalga oshirish, uchuvchisiz uchish apparatlari va boshqa texnik vositalar yordamida hududlarni kuzatish, radiatsion monitoring o'tkazish, xavfli hududlarni aniqlash va baholash, qidiruv-qutqaruv ishlarini tashkil etish hamda ularning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha mutaxassisning mehnat funksiyalari, vazifalari, zarur bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		54110 — Qutqaruvchi-uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA) operatori	4
		54110 — Qutqaruvchi-dozimetrist	4

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	54110 — Qutqaruvchi- uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA) operatori	A1.4	Uchuvchisiz uchish apparatini parvozga tayyorlash va texnik sozligini ta'minlash	A1.01.4	Uchuvchisiz uchish apparatini parvozga tayyorlash, texnik holatini tekshirish va sozligini nazorat qilish
				A1.02.4	Parvoz oldidan topshiriqni o'rganish, yo'nalishni rejalashtirish
		A2.4	Favqulodda vaziyatlarda uchuvchisiz uchish apparati parvozlarni amalga oshirish	A2.01.4	Favqulodda vaziyat sodir bo'lgan hududni havodan kuzatish, razvedka ishlarini olib borish va vaziyatni baholash
				A2.02.4	Qidiruv-qutqaruv ishlarida bedarak yo'qolgan shaxslarni, jabrlanganlarni va xavfli hududlarni aniqlash
		A3.4	Mehnat muhofazasi va parvoz xavfsizligi qoidalariga amal qilish	A3.01.4	Texnik vositalar bilan ishlashda xavfsizlik choralariga rioya qilish
2	54110 - Qutqaruvchi- dozimetr	B1.4	Radiatsion ifloslanish manbalarini aniqlash va baholash	B1.01.4	Favqulodda vaziyat sodir bo'lgan hududning radiatsion holatini baholash hamda xavf darajasini aniqlash
				B1.02.4	Dozimetrik va radiometrik asboblarni yordamida ionlashtiruvchi nurlanish darajasini o'lchash
		B2.4	Favqulodda vaziyatlarda radiatsion razvedka ishlarini olib borish	B.2.01.4	Radiatsion, kimyoviy va biologik xavf mavjud hududlarda razvedka ishlarini olib borish
				B2.02.4	Radiatsion ifloslanish chegaralarini belgilash va zararlangan hududlarni xaritalash
		B3.4	Dezaktivatsiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirish	B3.01.4	Zararlangan hududlarni zararsizlantirish ishlarini tashkil etish va amalga oshirish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Qutqaruvchi-uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA) operatori	
Mashg'ulot nomining kodi:	54110	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	4	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	18 yoshga to'lgan 30 yoshdan oshmagan bo'lishi, erkak yoki ayol sutkalik navbatchilik olib borishga chidamli, sog'lom, erkaklar harbiy xizmatni o'tagan bo'lishi, ishga qabul qilishdan oldin va mehnat faoliyati davomida tibbiy ko'riklardan o'tish talab qilinadi. Belgilangan ichki tartib qoidalarga rioya qilish. Mehnat intizomi va xizmatga sadoqat. Favqulodda vaziyatlarda stressga chidamlilik. Maxsus yoki xizmatga oid axborotlarning maxfiyligini saqlash. Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; Jamoadagi va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	O'rta professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	umumiy o'rta ta'lim+norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan tashkil etilgan qisqa muddatli qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan o'tishlari talab etiladi	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	4	Qutqaruvchi

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3- Uchuvchisiz uchish apparatini parvozga tayyorlash va texnik sozligini ta'minlash	A1.01.3- Uchuvchisiz uchish apparatini parvozga tayyorlash, texnik holatini tekshirish va sozligini nazorat qilish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Uchuvchisiz uchish apparatining tashqi ko'rinishini tekshirish
		2. Korpus, qanotlar, vintlar (propellerlar), shassi va boshqa konstruktiv qismlarning butligini nazorat qilish
		3. Akkumulyatorlarning zaryad darajasi, ulanishi va texnik holatini tekshirish
		4. Parvoz boshqaruv tizimi, sensorlar, GPS moduli, kompas va IMU qurilmalarining ishlashini sinovdan o'tkazish
		5. Masofadan boshqarish pulti (radiopult) va aloqa kanallarining barqaror ishlashini nazorat qilish
		6. Parvoz oldidan barcha tizimlar soz holatda ishlayotganini tasdiqlab, uchirishga tayyorlik haqida xulosa berish
		7. Dasturiy ta'minotni ishga tushirish, zarur parametrlarni yuklash va konfiguratsiyasini tekshirish
		Ko'nikmalar:
		UUAni parvoz oldidan to'liq texnik ko'rikdan o'tkazish
		UUAning konstruktiv qismlari holatini baholash
		Parvoz topshirig'iga muvofiq zarur parametrlarni kiritish va yuklash
		Parvoz boshqaruv tizimi, GPS, kompas, IMU va boshqa sensorlarning sozligini tekshirish
		Dasturiy konfiguratsiyaning to'g'riligini tekshirish va zarur hollarda sozlash
		Dasturiy ta'minot, sensorlar va aloqa tizimlarining ishlashini sinovdan o'tkazish
		Favqulodda vaziyatlarda UUAning xavfsizlik funksiyalarini sozlash va sinovdan o'tkazish
		UUA boshqaruv dasturini ishga tushirish va undan samarali foydalanish
		Aniqlangan dasturiy xatoliklar yoki konfiguratsiya muammolarini bartaraf etish
		UUAni xavfsiz uchirish va parvozga tayyor holatga keltirish
		Mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi va aviatsiya xavfsizligi talablariga rioya qilish
		Bilimlar:
		UUAning turlari, tuzilishi, ishlash prinsipi va texnik tavsiflari

		UUAning dasturiy ta'minoti va boshqaruv dasturlarining ishlash tamoyillari
		UUAning apparat va dasturiy ta'minoti o'rtasidagi o'zaro ishlash prinsiplari
		Dasturiy nosozliklarni aniqlash va bartaraf etishning asosiy usullari
		UUAning asosiy qismlarining vazifalari va ishlash prinsiplari
		UUA ni ekspluatatsiya qilish bo'yicha ishlab chiqaruvchi yo'riqnomalari va texnik hujjatlar talablari
		Akkumulyatorlarning ishlash prinsipi, zaryadlash, saqlash va xavfsiz foydalanish qoidalari
		Parvoz missiyasini rejalashtirish va marshrut parametrlarini shakllantirish asoslari
		UUAda uchrashi mumkin bo'lgan texnik nosozliklar, ularning belgilari va bartaraf etish usullari
		Axborot xavfsizligi va ma'lumotlarni himoya qilish talablari
		Aviatsiya xavfsizligi, parvozlar xavfsizligi va UUAdan foydalanishga oid normativ-huquqiy hujjatlar talablari
	A1.02.3- Parvoz oldidan topshiriqni o'rganish, yo'nalishni rejalashtirish	Mehnat harakatlari:
		1. Favqulodda vaziyat to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarni tahlil qilish va aniqlashtirish
		2. Parvoz hududidagi relyef, sun'iy va tabiiy to'siqlarni aniqlash va baholash
		3. Meteorologik ma'lumotlarni (shamol tezligi va yo'nalishi, yog'ingarchilik, harorat, ko'rinish darajasi va boshqalar) tahlil qilish
		4. Parvoz hududining xaritalari, aerofotosuratlar va geografik ma'lumotlarini o'rganish
		5. Parvoz rejasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va aviatsiya xavfsizligi talablariga muvofiqligini tekshirish
		6. Parvoz topshirig'i bo'yicha yakuniy tayyorgarlikni baholash va parvozni boshlashga tayyorlik haqida xulosa berish
		Ko'nikmalar:
		Qidiruv-qutqaruv topshirig'ining maqsadi va vazifalarini tahlil qilish
		Favqulodda vaziyat to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, baholash va tizimlashtirish
		Parvoz hududining relyefi, to'siqlari va xavf omillarini aniqlash hamda baholash
		Havo hududidan foydalanish cheklovlar,

		taqiqlangan va xavfli zonalarni aniqlash
		Parvoz marshrutini topshiriq maqsadiga mos ravishda rejalashtirish
		Parvoz balandligi, tezligi, yo'nalishi va nazorat nuqtalarini belgilash
		Bilimlar:
		Favqulodda vaziyatlarda qidiruv-qutqaruv ishlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari
		Uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanish bo'yicha amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va aviatsiya qoidalar
		Havo hududidan foydalanish tartibi, parvozlarni cheklovchi va taqiqlovchi zonalar to'g'risidagi talablar
		Parvoz missiyasini rejalashtirish usullari va bosqichlari
		Meteorologiya asoslari hamda ob-havo omillarining UUA parvozig ta'siri
		UUAning texnik imkoniyatlari, parvoz davomiyligi, uchish masofasi va xususiyatlari
		Avtomatik parvoz dasturlari va missiyani rejalashtirish dasturlaridan foydalanish prinsiplari
		Xavflarni aniqlash, tahlil qilish va baholash metodlari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Parvoz marshrutini amaldagi me'yoriy hujjatlar, aviatsiya xavfsizligi talablari va tezkor vaziyatdan kelib chiqib mustaqil rejalashtirish
		2. UUAning texnik imkoniyatlari va cheklovlarini hisobga olgan holda xavfsiz parvoz rejasini ishlab chiqish uchun javobgarlik
		3. Parvoz missiyasini boshqaruv dasturiga to'g'ri kiritish va uning parametrlarini tekshirish uchun mas'uliyat
		4. Topshiriqni bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni oldindan baholash va ularni kamaytirish bo'yicha asoslangan qarorlar qabul qilish
		5. Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda belgilangan tartibda mustaqil, tezkor va asoslangan qarorlar qabul qilish
A2.3- Favqulodda vaziyatlarda Uchuvchisiz uchish apparati parvozlarni amalga oshirish		Mehnat harakatlari:
		1. Favqulodda vaziyat to'g'risidagi ma'lumotlarni qabul qilish va vazifani aniqlashtirish
		2. Parvoz hududi, ob-havo sharoiti va xavf omillarini tahlil qilish
		3. UUAni xavfsiz uchirish va belgilangan hudud bo'ylab boshqarish

	A2.01.3- Favqulodda vaziyat sodir bo'lgan hududni havodan kuzatish, razvedka ishlarini olib borish va vaziyatni baholash	4. Favqulodda vaziyat hududini havodan kuzatish
		5. Jabrlanganlar, yong'in o'choqlari, vayronalar, suv bosgan hududlar yoki boshqa xavfli omillarni aniqlash
		6. Qidiruv-qutqaruv ishlariga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash va baholash
		7. Olingan ma'lumotlarni real vaqt rejimida tezkor shtab yoki qutqaruv guruhlariga uzatish
		Ko'nikmalar:
		Uchuvchisiz uchish apparatini xavfsiz boshqarish va parvoz parametrlarini nazorat qilish
		Parvoz oldidan UUAning texnik holatini tekshirish va parvozga tayyorlash
		Parvoz marshrutini rejalashtirish hamda navigatsiya dasturlaridan foydalanish
		Yuqori aniqlikdagi foto va videotasvirlarni olish hamda boshqarish
		Havodan olingan tasvirlarni tezkor tahlil qilish va vaziyatni baholash
		Favqulodda vaziyat hududida xavflarni aniqlash va ularni baholash
		Qidiruv-qutqaruv ishlarini axborot bilan ta'minlash uchun zarur tavsiyalar tayyorlash
		Parvoz davomida aviatsiya xavfsizligi, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi talablariga rioya qilish
		Bilimlar:
		Favqulodda vaziyatlar turlari hamda ularning xususiyatlari
		UUAning tuzilishi, ishlash prinsipi, texnik tavsiflari va ekspluatatsiya qoidalari
		Aviatsiya xavfsizligi, parvozlarni tashkil etish va UUA dan foydalanishga oid normativ-huquqiy hujjatlar
		Meteorologiya asoslari hamda ob-havo omillarining parvoz xavfsizligiga ta'siri
		Havodan kuzatuv va razvedka usullari, qidiruv-qutqaruv operatsiyalarida UUA ni qo'llash metodlari
		Favqulodda vaziyat hududida xavflarni aniqlash, baholash va zonalarga ajratish mezonlari
		Radiatsion, kimyoviy, biologik va yong'in xavfi mavjud hududlarda razvedka olib borish tartibi
		UUA ga texnik xizmat ko'rsatish, nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishning asosiy usullari

	A2.02.3- Qidiruv-qutqaruv ishlarida bedarak yo'qolgan shaxslarni, jabrlanganlarni va xavfli hududlarni aniqlash	Mehnat harakatlari:
		1. Qidiruv-qutqaruv vazifasi bo'yicha ma'lumotlarni qabul qilish, hudud, vaziyat va qidiruv maqsadini aniqlashtirish
		2. Qidiruv hududini o'rganish, mavjud xaritalar, koordinatalar va dastlabki razvedka ma'lumotlarini tahlil qilish
		3. UUA, boshqaruv stansiyasi, aloqa vositalari va kuzatuv qurilmalarini qidiruv vazifasiga tayyorlash
		4. Qidiruv hududining parvoz marshrutini ishlab chiqish va xavfsiz parvoz zonasini belgilash
		5. UUA ni belgilangan hudud bo'ylab boshqarish va havodan keng qamrovli kuzatuv olib borish
		6. Aniqlangan shaxslar, transport vositalari, vayronalar, xavfli zonalar va boshqa obyektlarning joylashuv koordinatalarini belgilash
		7. Aniqlangan jabrlanganlarning holati va joylashuvi to'g'risida dastlabki baholash ma'lumotlarini taqdim etish
		8. Xavf darajasi yuqori bo'lgan hududlarni aniqlash va ularga tegishli belgilar qo'yish
		Ko'nikmalar:
		UUA ni turli sharoitlarda xavfsiz boshqarish va qidiruv parvozlarni amalga oshirish
		Qidiruv hududi bo'yicha parvoz marshrutlarini mustaqil rejalashtirish
		UUA ning kamera, termokamera, tungi ko'rish va boshqa kuzatuv vositalaridan samarali foydalanish
		Qiyin va xavfli hududlarda havodan qidiruv ishlarini bajarish
		Aloqa vositalari orqali aniq va tezkor axborot almashish
		Qidiruv hududida xavf omillarini baholash va xavfsiz parvozlarni ta'minlash
		Bilimlar:
		Qidiruv-qutqaruv ishlarini tashkil etish asoslari – qidiruv operatsiyalarining bosqichlari, usullari va vazifalari
		Favqulodda vaziyatlarning xususiyatlari – tabiiy, texnogen va boshqa favqulodda holatlarda yuzaga keladigan xavflar
		Uchuvchisiz uchish apparatlarining tuzilishi va ishlash prinsipi – UUA turlari, boshqaruv tizimlari, parvoz imkoniyatlari va qo'llash asoslari

		UUAning kuzatuv va qidiruv uskunalari – videokamera, termokamera, tungi ko‘rish qurilmalari, sensorlar va boshqa maxsus jihozlarning ishlash tamoyillari
		Havodan qidiruv olib borish metodlari – hududni skanerlash, qidiruv yo‘nalishlarini belgilash va kuzatuv usullari
		Qiyin hududlarda qidiruv olib borish xususiyatlari – tog‘li, o‘rmonli, suv bosgan, vayrona va borish qiyin bo‘lgan joylarda kuzatuv olib borish tartibi
		Jabrlanganlarni aniqlash va joylashuvini belgilash tartibi – aniqlangan shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qutqaruvchilarga yetkazish usullari
	Mas’uliyat va mustaqillik:	1. UUAning xavfsiz boshqarish, parvoz qoidalariga rioya qilish va texnik xavfsizlikni ta‘minlash uchun mas’uliyat
		2. Bedarak yo‘qolgan shaxslar, jabrlanganlar va xavfli hududlarni aniqlashda olingan ma‘lumotlarning aniqligi va ishonchliligiga javobgarlik
		3. Aniqlangan obyektlarning joylashuv koordinatalarini to‘g‘ri belgilash va qutqaruv guruhlariga aniq yetkazish uchun mas’uliyat
		4. Qidiruv hududidagi xavfli omillarni o‘z vaqtida aniqlash va tegishli xizmatlarga xabar berish uchun mas’uliyat
		5. Qidiruv usullari, kuzatuv rejimlari va texnik vositalardan foydalanish bo‘yicha mustaqil qarorlar qabul qilish
		6. Parvoz jarayonida o‘zgarayotgan vaziyatga mos ravishda tezkor harakat qilish
	A3.3- Mehnat muhofazasi va parvoz xavfsizligi qoidalariga amal qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Parvoz hududini va atrof-muhit sharoitlarini tekshirish
		2. Akkumulyatorlar, elektr ta‘minoti va boshqaruv pultlari ishlashini tekshirish
		3. Mehnat xavfsizligi talablariga muvofiq shaxsiy himoya vositalarini qo‘llash
		4. UUAning faqat belgilangan hudud va ruxsat etilgan balandlikda boshqarish
		5. Parvoz vaqtida odamlar, binolar, elektr tarmoqlari va boshqa to‘siqlardan xavfsiz masofani saqlash
		6. Elektr jihozlari bilan ishlashda xavfsizlik qoidalariga amal qilish

		7. Akkumulyatorlarni zaryadlash va saqlashda xavfsizlik talablarini ta'minlash
		Ko'nikmalar:
		Boshqaruv pulti, dasturiy ta'minot va aloqa tizimlaridan foydalanish
		UUAning texnik holatini tekshirish va oddiy texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish
		Parvoz hududini baholash va xavf omillarini aniqlash
		Avariyaviy vaziyatlarda tez va to'g'ri qaror qabul qilish
		Parvoz qoidalari va xavfsizlik talablariga rioya qilish
		Qidiruv-qutqaruv ishlarida UAdan samarali foydalanish
		Zarar ko'rgan hududlarni havodan kuzatish va ma'lumot to'plash
		Bilimlar:
		Uchuvchisiz uchish apparatining tuzilishi, asosiy qismlari va ishlash prinsiplari
		Dvigatellar, vintlar, akkumulyatorlar, boshqaruv tizimi va sensorlarning vazifalari
		Kameralar va kuzatuv uskunalarning ishlash xususiyatlari
		UUALarni parvozlarini amalga oshirish qoidalari va ulardan foydalanish tartibi
		Parvozga tayyorgarlik ko'rish, marshrut tanlash va havo sharoitini baholash tartiblari
		Parvoz davomida balandlik, tezlik va yo'nalishni nazorat qilish usullari
		Mehnat muhofazasi qoidalari va xavfsiz ishlash talablari
		Tabiiy yoki texnogen talofat ko'rgan hududlarni havodan kuzatish usullari
		Favqulodda vaziyatlarda qidiruv-qutqaruv ishlarini tashkil etish asoslari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. UUA ni xavfsiz boshqarish va parvoz xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya etilishi uchun javobgar
		2. Qutqaruv ishlarini bajarish jarayonida yuklatilgan vazifalarning sifatli, to'liq va belgilangan muddatlarda bajarilishi uchun javobgar
		3. Uchirishdan oldin va keyin texnik vositalarning texnik holatini tekshirish hamda sozligini ta'minlash uchun javobgar
		4. UUAning boshqaruv qurilmalari va boshqa texnik jihozlardan belgilangan tartibda mustaqil
		5. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi

		talablariga qat'iy amal qilish
		6. Favqulodda vaziyatlarda inson hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishga qaratilgan mustaqil va tezkor qarorlar qabul qilish
Texnik va/yoki texnologik talab:		Uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA) Uchish qurilmasi, boshqaruv pulti, aloqa tizimi va kameralar Akkumulyatorlar, elektr ta'minoti va zaryadlash qurilmalari Kompyuter texnikasi va maxsus dasturiy ta'minot

Kasbning nomi:	Qutqaruvchi-dozimetrist
Mashg'ulot nomining kodi:	54110
TMR bo'yicha malaka darajasi:	4
Malakani baholashga qo'yiladigan talabalar:	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	18 yoshga to'lgan 30 yoshdan oshmagan bo'lishi, erkak, yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlik va chidamli, jismonan sog'lom va harbiy xizmatni o'tagan bo'lishi Belgilangan ichki tartib qoidalarga rioya qilish. Mehnat intizomi va xizmatga sadoqat Qiyin, xavfli va uzoq muddatli qutqaruv ishlarida faol ishtirok etish Tezkor harakat qilish va qutqaruv ishlarini bajarishga tayyor bo'lishi Yuqori jismoniy va ruhiy zo'riqishlarga chidamli bo'lishi Qutqaruv ishlarini amalga oshirishda yuqori samaradorlik Maxsus yoki xizmatga oid axborotlarning maxfiyligini saqlash. Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan

	holda faoliyat olib borish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	O'rta professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Umumiy o'rta (o'rta maxsus) ta'lim yoki boshlang'ich professional ta'lim+norasmiy (informal) ta'lim va amaliy tajriba Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan tashkil etilgan qisqa muddatli qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	4	Qutqaruvchi-biolog
	4	Qutqaruvchi-kimyogar
	6	Radiatsion, kimyoviy va biologik muhofaza guruhi boshlig'i
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.4- Radiatsion ifloslanish manbalarini aniqlash va baholash	B1.01.4- Favqulodda vaziyat sodir bo'lgan hududning radiatsion holatini baholash hamda xavf darajasini aniqlash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Radiatsion razvedkani o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish, dozimetrik va radiometrik asboblarning sozligini tekshirish
		2. Belgilangan yo'nalish bo'yicha radiatsion razvedkani amalga oshirish
		3. Hududdagi gamma-nurlanish quvvatini, zararlanish darajasini va boshqa radiatsion ko'rsatkichlarni o'lchash
		4. Olingan o'lchov natijalarini me'yoriy ko'rsatkichlar bilan taqqoslash
		5. Radiatsion xavf darajasini aniqlash va zararlangan hudud chegaralarini belgilash
		6. Radiatsion vaziyat xaritasini yoki sxemasini tuzish, zararlangan uchastkalarni belgilash
		Ko'nikmalar:
		Dozimetrik va radiometrik asboblardan to'g'ri foydalanish
		Gamma, beta va boshqa ionlashtiruvchi nurlanish darajasini o'lchash
		Radiatsion razvedkani o'tkazish va zararlangan hududlarni aniqlash
		O'lchov natijalarini tahlil qilish va radiatsion vaziyatni baholash
		Radiatsion xavf darajasini belgilash va xavfsiz hududlarni aniqlash
		Shaxsiy va jamoaviy himoya vositalaridan samarali

		foydalanish
		Radiatsion xavfsizlik qoidalari va me'yorlariga qat'iy rioya qilish
		Bilimlar:
		Ionlashtiruvchi nurlanish turlari va ularning xususiyatlari
		Radiatsiya manbalari hamda ularning inson va atrof-muhitga ta'siri
		Radiatsion xavfsizlik bo'yicha qonunchilik, me'yoriy hujjatlar va sanitariya qoidalari
		Dozimetriya va radiometriya asoslari, nurlanishning o'lchov birliklari
		Dozimetrik va radiometrik asboblarning tuzilishi, ishlash prinsipi va ulardan foydalanish tartibi
		Radiatsion razvedka va radiatsion nazoratni tashkil etish usullari
		Radiatsion holatni baholash metodlari va xavf darajasini aniqlash mezonlari
		Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish sohasidagi qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlar
		Radiatsion zararlanish hududlarini aniqlash, belgilash va xaritalashtirish asoslari
		Shaxsiy va jamoaviy himoya vositalaridan foydalanish qoidalari
		Dezaktivatsiya, sanitariya ishlovi va radiatsion ifloslanishni kamaytirish usullari
		Favqulodda vaziyatlarda qutqaruv ishlarini tashkil etish va radiatsion xavfsizlik talablariga rioya qilish qoidalari
	B1.02.4- Dozimetrik va radiometrik asboblarda yordamida ionlashtiruvchi nurlanish darajasini o'lchash	Mehnat harakatlari:
		1. Dozimetrik va radiometrik asboblarni tashqi ko'rikdan o'tkazish, ularning sozligi va ishlashga tayyorligini tekshirish
		2. Asboblarni yo'riqnoma talablariga muvofiq ishga tayyorlash, kalibrlash va nazorat o'lchovlarini amalga oshirish
		3. Belgilangan marshrut yoki nazorat nuqtalarida ionlashtiruvchi nurlanish darajasini o'lchash
		4. Gamma-nurlanish quvvati, radioaktiv ifloslanish darajasi va boshqa radiatsion ko'rsatkichlarni aniqlash
		5. Olingan natijalarni belgilangan me'yorlar bilan taqqoslash va radiatsion vaziyatni baholash
		6. Radiatsiyaviy xavf zonalarini belgilash va zarurat bo'lganda cheklov choralari tavsifiya etish
		7. Favqulodda vaziyatlarda radiatsion razvedka va monitoring ishlarini belgilangan tartibda amalga oshirish

		Ko'nikmalar: Dozimetrik va radiometrik asboblarni ishga tayyorlash va ulardan to'g'ri foydalanish Asboblarning ishlash qobiliyatini tekshirish, kalibrlash va nazorat sinovlarini o'tkazish Gamma, beta va boshqa ionlashtiruvchi nurlanish turlarini o'lchash Radiatsiya quvvati va radioaktiv ifloslanish darajasini aniqlash O'lchov natijalarini to'g'ri o'qish, tahlil qilish va baholash Radiatsion monitoring va radiatsion razvedka ishlarini belgilangan tartibda olib borish Shaxsiy himoya vositalari hamda shaxsiy dozimetrlarni to'g'ri qo'llash O'lchov asboblariga oddiy texnik xizmat ko'rsatish Bilimlar: Ionlashtiruvchi nurlanishning turlari, ularning xususiyatlari va inson organizmiga ta'siri Dozimetriya va radiometriyaning asosiy tushunchalari, o'lchov birliklari Dozimetrik va radiometrik asboblarning tuzilishi, ishlash prinsipi, texnik tavsiflari va qo'llash asoslari Ionlashtiruvchi nurlanish darajasini o'lchash usullari va metodikalari Radiatsiyaviy xavfsizlik talablari, sanitariya me'yorlari va radiatsion himoya tamoyillari Shaxsiy himoya vositalari va shaxsiy dozimetrlarning vazifasi hamda ulardan foydalanish qoidalari Dozimetrik va radiometrik asboblarni ishga tayyorlash, tekshirish, kalibrlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish asoslari Radioaktiv ifloslanishni aniqlash, baholash va zararsizlantirish asoslari Radiatsion avariylar va favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartibi
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Radiatsion nazorat ishlarini belgilangan tartib, me'yor va xavfsizlik talablariga muvofiq mustaqil amalga oshirish 2. Radiatsion xavf aniqlanganda vaziyatni tezkor baholash va vakolati doirasida zarur choralarni mustaqil belgilash 3. O'lchov natijalarining aniqligi, ishonchliligi va belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi uchun javobgar

		4. Dozimetrik va radiometrik asboblardan to'g'ri foydalanish, ularning texnik sozligi va saqlanishini ta'minlash uchun javobgar bo'lish
		5. Radiatsion xavfsizlik, mehnatni muhofaza qilish hamda texnika xavfsizligi talablariga rioya etilishi uchun javobgar
		6. Favqulodda vaziyatlarda tezkor, asoslangan va mas'uliyatli qarorlarni o'z vakolati doirasida qabul qilish
B2.4- Favqulodda vaziyatlarda radiatsion razvedka ishlarini olib borish	B2.01.4- Radiatsion, kimyoviy va biologik xavf mavjud hududlarda razvedka ishlarini olib borish	Mehnat harakatlari:
		1. Shaxsiy himoya vositalari hamda dozimetrik, kimyoviy va biologik nazorat asboblari tayyorlash va ularning sozligini tekshirish
		2. Belgilangan yo'nalish bo'yicha xavfli hududga kirish va razvedka ishlarini xavfsizlik talablariga rioya qilgan holda olib borish
		3. Radiatsiya darajasini, ionlashtiruvchi nurlanish quvvatini va radioaktiv ifloslanish chegaralarini o'lchash
		4. Kimyoviy zaharlovchi moddalar mavjudligini aniqlash, ularning turi va konsentratsiyasini maxsus asboblardan yordamida baholash
		5. Biologik xavf alomatlarini aniqlash, zarur hollarda namunalar olish va laboratoriyaga yuborish
		6. Xavfli hudud chegaralarini belgilash hamda zarur ogohlantiruvchi belgilarni o'rnatishda ishtirok etish
		7. Qutqaruv bo'linmalariga xavfsiz harakatlanish yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar berish
		8. Zarurat tug'ilganda dezaktivatsiya, degazatsiya va dezinfeksiya tadbirlarini tashkil etish yoki ularda ishtirok etish
		Ko'nikmalar:
		Radiatsion, kimyoviy va biologik vaziyatni tezkor baholash
		Dozimetrik, radiometrik va kimyoviy razvedka asboblari to'g'ri foydalanish
		Radiatsiya darajasi, zaharlovchi moddalar va biologik xavf omillarini aniqlash hamda o'lchash
		O'lchov natijalarini tahlil qilish, qayd etish va baholash
		Razvedka yo'nalishlarini rejalashtirish va xavfsiz harakatlanish marshrutlarini tanlash
		Radiatsion, kimyoviy va biologik ifloslanish chegaralarini belgilash

		Xavfli hududlardan namunalar olish, qadoqlash
		Dezaktivatsiya, degazatsiya va dezinfeksiya tadbirlarini bajarish
		Jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish va ularni xavfsiz hududga evakuatsiya qilish
		Bilimlar:
		Radiatsion, kimyoviy va biologik xavf manbalari, ularning xususiyatlari va inson salomatligiga ta'siri
		Ionlashtiruvchi nurlanish turlari, radiatsiya birliklari, dozalar va ularni o'lchash usullari
		Zaharli kimyoviy moddalar, kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar va ularning fizik-kimyoviy xossalari
		Biologik xavf omillari (bakteriyalar, viruslar, zamburug'lar, toksinlar) va ularning tarqalish yo'llari
		Radiatsion, kimyoviy va biologik razvedka o'tkazish tartibi va usullari
		Dozimetrik, radiometrik, gaz tahlil qiluvchi va biologik nazorat asboblarning tuzilishi, ishlash prinsipi hamda ulardan foydalanish qoidalari
		Radiatsion, kimyoviy va biologik vaziyatni baholash mezonlari
		Dezaktivatsiya, degazatsiya va dezinfeksiya usullari hamda ularni qo'llash tartibi
		Xavfli hududlarni belgilash, xaritalash va razvedka natijalarini hujjatlashtirish tartibi
		Jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish asoslari hamda evakuatsiya qilish qoidalari
	B2.02.4- Radiatsion ifloslanish chegaralarini belgilash va zararlangan hududlarni xaritalash	Mehnat harakatlari:
		1. Belgilangan hududga kirib, gamma-nurlanish darajasi va radiatsion fonni o'lchash
		2. Havodagi, tuproqdagi va obyektlardagi radioaktiv ifloslanish darajasini aniqlash
		3. Radiatsiya manbalarining joylashuvi va tarqalish yo'nalishini belgilash
		4. O'lchov natijalarini maxsus jurnal yoki elektron tizimga qayd etish
		5. Radiatsiya darajasi xavfsiz va xavfli zonalarga ajratiladigan chegaralarni belgilash
		6. Radiatsion o'lchov natijalarini xaritaga tushirish
		7. Shaxsiy nurlanish dozasini doimiy nazorat qilish
		8. Zararlangan joylardan chiqishda dezaktivatsiya qilish
		Ko'nikmalar:
		Dozimetrik va radiometrik asboblardan foydalanish

		Dozimetr, radiometr va boshqa radiatsion nazorat vositalarini to'g'ri ishlata olish
		Asboblarni tekshirish, sozlash va o'lchov natijalarini baholash
		Gamma, beta va boshqa ionlashtiruvchi nurlanish darajasini aniqlash
		Zararlangan hududlarda xavfsiz harakatlanish yo'nalishlarini belgilash
		Radiatsiya manbalarini aniqlash va ularning tarqalish xususiyatlarini baholash
		Belgilangan nuqtalarda aniq radiatsion o'lchovlarni amalga oshirish
		Olingan o'lchov natijalari asosida xavfli va xavfsiz zonalarini ajratish
		Radiatsion o'lchov natijalarini xaritaga tushirish
		Favqulodda vaziyat rivojlanishini oldindan prognoz qilish
		Shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish
		Bilimlar:
		Radiatsiya va ionlashtiruvchi nurlanishlarining xususiyatlari
		Ionlashtiruvchi nurlanishning inson organizmiga va atrof-muhitga ta'siri
		Radiatsiya manbalari, ularning xavflilik darajasi va tarqalish qonuniyatlari
		Dozimetrik va radiometrik asboblarning tuzilishi hamda ishlash prinsiplari
		Radiatsiya dozalari, doza quvvati va radioaktiv ifloslanish ko'rsatkichlarini aniqlash usullari
		Hududlarni radiatsion xavf darajasiga ko'ra ajratish tamoyillari
		Ifloslanish chegaralarini aniqlash, belgilash va nazorat qilish usullari
		Radiatsion razvedkani tashkil etish va olib borish tartibi
		O'lchov nuqtalarini tanlash va namunalar olish qoidalari
		Shartli belgilar, koordinatalar tizimi va masshtablardan foydalanish tartiblari
		Radioaktiv moddalar tarqalishiga ta'sir qiluvchi omillar
		Atrof-muhit obyektlaridagi radioaktiv ifloslanish xususiyatlari
		Ifloslanish o'choqlarini aniqlash va tarqalish yo'nalishini baholash tartiblari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Radiatsion o'lchovlarni aniq va ishonchli amalga oshirish hamda o'lchov natijalarini to'g'ri qayd etish uchun javobgarlik

		2. Radiatsion ifloslanish chegaralarini belgilashda xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun javobgar
		3. Zararlangan hududlarni xaritalash jarayonida olingan ma'lumotlarning to'g'riligi, ishonchliligi va o'z vaqtida rasmiylashtirilishini ta'minlash uchun javobgar
		4. Asbob-uskunalaridan belgilangan tartibda to'g'ri hamda mustaqil foydalanish
		5. Radiatsion vaziyatni mustaqil baholash
		7. Vaziyat o'zgarganda xavfsiz harakat yo'nalishini mustaqil belgilash
B3.4- Dezaktivatsiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirish	B3.01.4- Zararlangan hududlarni zararsizlantirish ishlarini tashkil etish va amalga oshirish	Mehnat harakatlari:
		1. Favqulodda vaziyat joyini ko'zdan kechirish
		2. Radiatsion, kimyoviy va boshqa xavfli omillarni aniqlash
		3. Dozimetrik asboblardan yordamida zararlanish darajasini o'lchash
		4. Dezaktivatsiya, degazatsiya va dezinfeksiya tadbirlarini rejalashtirishda ishtirok etish
		5. Zararlangan hududlar, bino va inshootlarni tozalash ishlarida qatnashish
		6. Radioaktiv ifloslanishni kamaytirish bo'yicha dezaktivatsiya ishlarini bajarish
		7. Kimyoviy zaharlovchi moddalarni bartaraf etish tadbirlarida ishtirok etish
		Ko'nikmalar:
		Radiatsion, kimyoviy va biologik zararlanish belgilarini aniqlay olish
		Dozimetrik va nazorat-o'lchov asboblaridan to'g'ri foydalanish
		Zararlangan hudud chegaralarini belgilash va xavf darajasini baholash
		Hudud, texnika, bino va jihozlarni zararsizlantirish vositalaridan foydalanish
		Zararsizlantirish uchun mo'ljallangan moslama va uskunalarni ishlata olish
		Shaxsiy himoya vositalarini to'g'ri kiyish va ulardan foydalanish
		Bilimlar:
		Tabiiy, texnogen va radiatsion xavfli favqulodda vaziyatlarning kelib chiqish sabablari va oqibatlari
		Zararlangan hududlarda harakat qilish tartibi va xavfsizlik talablari
		Radiatsiya turlari, ularning inson organizmiga ta'siri va himoyalash usullari
		Kimyoviy zaharli moddalar va biologik xavf manbalarining xususiyatlari

		Dozimetrik asboblarning tuzilishi, ishlash prinsipi va qo'llash qoidalari
		Dezaktivatsiya, degazatsiya va dezinfeksiya tushunchalari hamda ularni amalga oshirish usullari
		Zararsizlantirish ishlarining ketma-ketligi va tashkil etish tartibi
		Shaxsiy himoya vositalarining turlari, vazifalari va ulardan foydalanish qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Zararlangan hududdagi radiatsion, kimyoviy va biologik xavfsizlik talablariga qat'iy rioya etilishi uchun javobgar
		2. Dozimetrik o'lchovlarning belgilangan tartibda aniq, ishonchli va o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash uchun javobgar
		3. Zararlangan hududni mustaqil ravishda baholash va xavf darajasini aniqlash
		4. Asbob-uskunalar va himoya vositalaridan mustaqil foydalanish
		5. Favqulodda vaziyatlarda belgilangan vakolat doirasida mustaqil harakat qilish
	Texnik va/yoki texnologik talab:	
	Dozimetrik nazorat asboblari, radiatsiya o'lchagichlar va boshqa maxsus jihozlar Maxsus kiyim, respirator, gazniqob, qo'lqop va himoya vositalari Zararsizlantirish texnikalari va maxsus transport vositalari Dezaktivatsiya, degazatsiya va dezinfeksiya qilish uskunolari	

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartning rekvizitlari

1.	Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining tasdiqlash hujjatlari:	Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining 2026-yil 25-avgustdagi 160-son bayoni
2.	Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining xulosasi:	KS-0203-son xulosa, 21.08.2026
3.	Kasbiy standart talqini va ishlab chiqilgan sanasi:	1.0-talqin, 11.08.2026
4.	Taxminiy qayta ko'rib chiqish sanasi:	08.08.2031

5.2. Kasbiy standartni ishlab chiqishga mas'ul tashkilot

Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi

(tashkilot nomi)

Boshqarma boshlig'i

Muxitdinov M. Y

(rahbarning lavozimi, imzosi va F.I.O.)

5.3. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxona)lar to'g'risida ma'lumot

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	Favqulodda vaziyatlar vazirligi Ta'lim jarayonini tashkil etish boshqarmasi boshlig'i	Ko'paysinov Ilxom Bozorbaevich
2	Favqulodda vaziyatlar vazirligi Xizmat va jangovar tayyorgarligini tashkil etish boshqarmasi boshlig'i	Islamov Sardor Iskanderovich
3	Favqulodda vaziyatlar vazirligi Tashkiliy shtat bo'limi boshlig'i	Mirbabaev Baxtiyor Tairovich
4	Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi Qutqaruvchilar tayyorlash texnikumi direktori	Dexqonov Abdumannon Abdulaxatovich
5	Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar bosh boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari	Razikov Dilshod Baxtiyorovich
6	Favqulodda vaziyatlar vazirligi Kadrlar bilan ta'minlash boshqarmasi bosh mutaxassisi Tarmoq kengash kotibi	Bekmuradov Shodiyor Kenjayevich



**FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLISH VA
BARTARAF ETISH SOHASIDA KASBIY MALAKALARNI
RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA TARMOQ KENGASHI**

KASBIY STANDART

**FAVQULODDA VAZIYATLARDA
AEROKUZATUV, RADIATSION
MONITORING VA QUTQARUVNI
TA’MINLASH FAOLIYATI**